

MEDIA OLAMDAGI AXBOROT INQILOBINING SHAXS  
MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA TA'SIRI

*Davlatova Mohichehra Turg'un qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi*

*(Ma'naviyat asoslari) yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborot xurujlarining mohiyati ularning shaxs ongiga va axloqiy qarashlariga ta'siri taxlil qilinadi.SHuningdek,media vositalarning inson ma'naviy kamolotiga ijobiy va salbiy ta'siri ,yolg'on axborot va manipulatsiya usullarning tarbiyaga ta'siri haqida so'z yuritiladi.Axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Axborot xurujlari,ma'naviy tarbiya,axloqiy tarbiya,media,ijtimoiy tarmoqlar,axborot ,ijtimoiy ong,axloqiy me'yorlar,

**Abstract:** In this article, the essence of information attacks is deduced by their influence on the consciousness and moral views of the individual. It is also thought about the positive and negative impact of media on human spiritual maturation ,the influence of false information and methods of manipulation on upbringing.

**Key words:** Information attacks, spiritual upbringing ,moral upbringing, media, social network, information, social awareness, moral standards.

## KIRISH

Bugungi taraqqiyotni axborot tarmog'I internetsiz tasavvur qilish qiyin.Ayni paytda jamiyatning har bir qatlami uchun kundalik turmushda internet muhim ro'l o'ynaydi.SHuningdek ,axborot insonni o'z ustida ishlashga ,rivojlanishiga yordam beradi.Albatta ,axborot axloqiy me'yorlarga asoslanishi zarur.SHaxsni axloqiy onggiga va axloqiy qarashlariga ta'sir kuchini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. ‘‘Axborot tevarak atrofdagi turli xil manbalardan to'plangan omillar bo'lib,bu bilimlarni qayta bayon etish ”dir.<sup>1</sup>

Axborot (lotincha “information”-tushuntirmaq,bayon qilmoq,arabcha “ xabar va ma'lumot ”degan ma'nolarni anglatadi)-hozirda kop qo'llaniladigan tushunchadir. “Axborot o'z mazmun -mohiyatiga ko'ra ,o'z-o'zini tashkil etadi va boyitib boradi.Lekin ,axborot tushunchasining umume'tirof etilgan ta'rifi hanuzgacha mavjud emas”.<sup>2</sup>XXI asr axborot inqilobi asri nomini oldi.Natijada,axborot uzatishdagi tezlik va texnologiyalar rivojini ko'rishimiz mumkin.Misol uchun,telegraf va rotatsion tipografik mashinalarning yaratilishi(1847-yil),telefon(1870-yil),radio(1895-

<sup>1</sup> Davronov Z.Ilmiy ijod metodologiyasi.-Toshkent :Iqtisod-moliya,2007.b-180.

<sup>2</sup> Винер Н Кибернетика М 1968 -C 166

yil),simsiz telegraf (1922-yil),televideniya(1930-yil) paydo bo'ldi.<sup>3</sup>Jamiyatning har bir sohasidagi o'zgarishlar ,nafaqat, texnika va iqtisodiy tomondan shuningdek,ma'naviy sohada ham tub burilish sodir bo'ldi.

Tarixdan insonlar xabar qoldirish uchun turli yo'llardan foydalanishgan,o'sha davrlarda qadimgi toshdagи yozuvlar va xabar yetkazuvchi elchilarni misol keltirish mumkin.lekin bunday xabarlarni yetkazish va qabul qilish uchun ko'p vaqt talab qilingan.Shundan so'ng axborotlar almashinuvini yaxshilash va tez yetkazib berish yo'llarini o'ylab topishga harakat qilishdi.Misol uchun,pochta xizmati ,so'ngra telegraf va telefonlar ixtiro qilindi.Lekin XX asr oxiriga kelib olimlar internetni ixtiro qilishi bilan hammasi o'zgardi.1969-yilda AQSH departamenti o'zining ilk ARPANET nomli tarmog'ini ishga tushirdi.U orqali AQSHning o'nlab xodimlari bir -biri bilan xabar almashish imkoniyatiga ega bo'ldi.Aynan internet axborot kommunikatsiya texnologiyalarining hozirgi zamondagi eng oliy ,ilg'or cho'qqisi bo'lib turibdi.SHuni ta'kidlash lozimki ,internetni rivojlanishi va axborot xurujlarini amalga oshirishda ,avvalo ,inson ongi va qalbini egallash orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish g'oyasi yotadi.Mazkur holatda ,davlatlarning barqarorligiga rahna solib ,millatning an'ana ,urf-odat va qadriyatlariga ,uning o'ziga xosligi ,millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo'yadi.Axborot inqilobi shaxsga ham ijobjiy ham salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin:

Ijobiy ta'sirlar:1.Ma'lumotlarga oson kirish-Axborot inqilobi shaxslar uchun turli -xil ma'lumotlarga oson kirish imkoniyatini yaratadi .Masalan,internet ,mobil ilovalar va onlayn platformalar yordamida ,har qanday shaxs mavzular bo'yicha bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2.Ta'lim va o'qish imkoniyatlari-Onlayn ta'lim platformalari va masofaviy o'qish imkoniyatlari shaxsning malakasini oshirishga yordam beradi.Shu orqali yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'rganish osonlashadi.

3.Kommunikatsiya va aloqalar -Axborot texnologiyalari orqali odamlar o'zaro tez va qulay aloqada bo'lishlari mumkin.Muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi.

Salbiy ta'sirlar:1.Axborotning haddan tashqari ko'pligi -Axborot inqilobi shaxslarni juda ko'p va turli xil ma'lumotlarga duchor qiladi ,bu esa noto'g'ri axborot yoki axborot yuki deb ataladigan holatni keltirib chiqaradi.Bu holat shaxsni qaror qabul qilish qobiliyatini pasaytirishi yoki stressni oshirishi mumkin.

2.Maxfiylik va xavfsizlik muammolari-Internet orqali axborot almashinushi ko'payishi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lish xavfini keltirib chiqaradi.

3.Ijtimoiy aloqalarning kamayishi:Yuzma-yuz muloqotni kamaytiradi.

4.Internetga qaramlik:Internet va texnologiyalarga ortiqcha qaramlik insonlarni o'z real hayotidan ajratib qo'yishi ,psixologik muammolarni keltirib chiqarishi

---

<sup>3</sup> Чернов А А Дашков и К 2003 С 13

mumkin.Yovuz va buzg'unchi g'oyalalar ta'sirini o'z vaqtida anglash ,ulardan doim ogoh bo'lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligini unutmaslik kerak.Ayniqsa ,bugungi o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari chuqur anglab yetish lozimdir.Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek , ``Biz farzandlarimizning ongi ,dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan ,yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lган jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas,balki qandaydir shubhali ,zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz``<sup>4</sup>Bugungi kunda dunyoning ko'p nuqtasida urush ,200dan ortiq davlatlarda ma'naviy urush ketmoqda .Ko'p jihatdan e'tibor berilsa ,ma'naviy tahdidlar axborot xurujlari orqali vujudga keladi.Misol uchun,Tibbiyat sohasini oladigan bo'lsak,yurak ,qon tomir kasalliklari davosi dori.Lekin Jamiat o'zini tarixini o'zligini yo'qotgan xalqni davosi yo'qdir,buni eng xavfli kasallik deb hisoblash zarur.Bugungi kunda,axborot xurujlarining oqibatlari yoshlarda depressiya ,loqaydlik ,befarqlik va sabrsizlikni keltirib chiqarmoqda.Muammoning ildizi ham axborotlarga to'g'ri ishonchli yondashishda ham insondan tanqidiy fikrlash hamda axborot savodxonligi talab etiladi..Bugungi kunda yoshlarda Vatanparvarlik ,qanoat sabr ,shukronalik ,ishonchni biroz sustlashganini ko'rishimiz mumkin.Fizikada qonuniyat bor ,bo'shliq bo'lmaydi.energiya bir turdan ikkinchi turga o'tadi.Jamiatda ham nimadir sustlashsa ,nimadir kuchayadi.Prezidentimiz aytganidek ``ma'rifat sustlashsa,jaholat kuchayadi``<sup>5</sup>.Yoshlarimizda Vatanparvalik,qanoat shukronalik, ishonchni pasayishi oqibatida boqimandalik loqaydlik ,dangasalik ,shikoyatchilik ko'paydi.<sup>6</sup>

Shunga qaramasdan,dunyo miqyosida yolg'on ma'lumot va uydurmalmarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab ,o'z qarmog'iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlarni misol qilishimiz mumkin.Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda axborot almashinuvi rivojlanmoqda,foydanuvchilarda insonlarga nisbatan andisha ,hurmat va masuliyat hissi keskin pasaydi,Ijtimoiy tarmoqlarni buzg'unchi g'oyalarni tarqatyotgani va yoshlarga salbiy ta'siri sezilmoqda .Misrlik iymon Abdurahim huquq -tartibot xodimlari ,tadqiqotchilar ,akademiklar hamda OAV xodimlaridan iborat ``Zamonaviy ommaviy axborot vositalari va terrorchilik harakatlari o'rtasidagi aloqalar`` mavzusida so'rovnama o'tkaziladi.Natijalarga ko'ra ,so'ralganlar hozirda ijtimoiy tarmoqlar -terrorchi guruhlar o'z a'zolari bilan bog'lanadigan ,yangi a'zolarni jalg qiliadigan eng muhim vosita ekanini tasdiqlashgan.Asosan Facebook tarmog'i ,shunday maqsadlarni amalga oshiruvchi ijtimoiy tarmoq ekani ma'lum bo'lgan.SHuningdek,tadqiqotchilar hozir yot guruhlar tuzog'iga ilinganlarni aksaryati ,bilimi saviyasi kam ,va moddiy aldovga tez uchadigan ,shuningdek,dunyoqarashi tor

<sup>4</sup> Mirziyoyev SH .milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild.T O'zbekiston,2017 b.150

<sup>5</sup> Karimov I ``Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch``2008yil b.54

<sup>6</sup> Inson fitrati: ma'naviyatga tahdid yechim va tavsiyalar 2023 yil

yoshlar ekani ham ma'lum qilingan.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar olamiga qanchalar chuqur kirib borayotganini turli xil vositalar orqali bilib olishimiz mumkin.Bugungi kunda dunyo aholisining 3 milliardga yaqin qismi ijtimoiy tarmoqlar a'zosidir.O'zbekistonda esa hozir 10,2 milliondan ziyod aholi internetdan foydalanadigan bo'lsa ,ulardan 5 milliondan ziyodi ijtimoiy tarmoqlarga a'zo.Eng rivojlangan davlatlardan AQSHdagi ``Boston consulting group`` tadqiqot markazi malumotiga ko'ra ,dunyoning eng yirik 4 mamlakat Xitoy,Braziliya, Rossiya ,Hindistonda internetdan foydalanuvchilar soni 2015 -yilda 1 milliarddan oshadi.Ulardan 60 foizidan ortig'I 35 yoshgacha bo'lgan insonlar tashkil etadi.Tadqiqotchilarni fikricha,har yili internetdan foydalanuvchilarni soni keskin ortib bormoqda<sup>7</sup>.Buning natijasida,axborotlarni keskin oshib ketganligi ularning qaysi biri to'g'ri qaysi yolg'onligini aniqlash uchun insonlarga axborot savodxonligi zarurdir.Yaqin avlod yoshlarni olsak,axborot almashinuvida smslarni afzal ko'rishgan,hozirgi yoshlar esa ijtimoiy tarmoqlarda online tartibdagi suhbatlarni ustun ko'rmoqda.Lekin ,oilalarda ijtimoiy tarmoqlar sababli ajralishlar ko'paymoqda.Yoshlarni o'rab turgan davr ,axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan davrdir,bu jarayon yoshlarni an'anaviy muhitdan ancha chetlashtirib quydi.<sup>8</sup>Aksariyat yoshlar vaqtlarini yolg'on va bo'hton xabarlarni o'qish bilan vaqtlarini behuda sarflamoqda.Shu tariqa ,ular barcha axborotga ega bo'ladi ,va o'z qarashidan kelib chiqib munosabat bildiradi.Ammo, ularni fikri ma'naviyatli insonlarni fikri deb bo'lmaydi,chunki ,axborotlarni rost yoki yolg'onligini tahlil qilmay turib o'z fikrini bayon qilishga intiladi.

Xulosa o'rnida. Axborot inqilobining asosiy xususiyati uning global xususiyatga ega ekanlidigkeitdir.Internetning keng tarqalishi,,raqamli texnologiyalar,mobil telefonlar va boshqalarni rivojlanishi insoniyat tarixidagi eng muhim o'zgarishlardan birini yaratdi.Bu o'zgarishlar axborot va ma'lumotlarni saqlash ,uzatish va ishlatish usullarni butunlay yangiladi.SHuningdek ,shaxslarning ijtimoiy va madaniy faoliyatini yanada kuchaytirdi.Bugungi kunda mediasavodxonlik va axborot madaniyati,kino, teatr ,san'atning turlari ,madaniyat sarchashmaları,internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ta'sirini o'tkazib,uning dunyoqarashini o'zgartirish kuchiga ham egadir.Yuqorida tilga olingan ,tushunchalarni qo'llanilishi va bugungi kunda mediata'lim ,mediasavodxonlik,mediatanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi,uning tarqalish jarayonini tushunib yetish,tijorat,siyosiy,iqtisodiy-ijtimoiy,ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.<sup>9</sup>Media savodxonlikni oshirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak:

### 1.Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:Odamlar mediada ko'rsatilgan ma'lumotlarni

<sup>7</sup> Karimov I yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T Ma'naviyat 2008

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M .Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.

<sup>9</sup> B.S,ABDULLAYEVA,Y.Z,RO'ZIYEV K.V,ISMOLOVA Media savodxonlik va axborot madaniyati darslik2024.

osonlik bilan qabul qilish o'rniga ,ularni tahlil qilish va tekshirishni o'rganish kerak.Xususan axborotlarni o'qishda ,e'tiborni manbaga ,muallifga va uning maqsadlariga qaratish kerak.

2.Manbalarni tekshirish:Ularning ishonchlilikiga e'tibor qaratish ,yolg'on va noto'g'ri ma'lumotlardan himoyalanishga yordam beradi.

Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa,Finlandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning ,1977-yildan esa oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga kiritilgan.1990-yillardan esa mamlakatda mediasavodxonlik mediata'lim nomiga o'zgartirilgan.<sup>10</sup>1990-yillarda Rossiyada mediata'lim darsligi yuritildi va Rossiyada kino ta'lim va media pedagogika sayt ishga tushurildi.Media savodxonlik axborot va axborot manbalarini tanqidiy baholashga yordam beradi va tanlangan ma'lumotlardan muammolarni hal qilish va g'yalarni tahlil qilish kompitensiyani shakllantiradi.Hamda ,manbanin ishonchliliqi uning to'g'riliqimi ,aniqliligin taxlil eta olishga samarali yordam beradi. Birinchi navbatda,yoshlarda savol berish ko'nikmasini hosil qilish kerak.

-Muallifi kim?

-Uning maqsadi nima?(xabar berish ,ko'ngil ochish ,ishontirish)

-Boshqa insonlar bu xabarni qanaday talqin qilishlari mumkin?

-Manbalar keltirilganmi?

Shu kabi savollarni o'rgatish ,OAV vositalarni mustaqil ravishda tahlil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>11</sup>

## **XULOSA**

Yoshlarimizda axborot is'temoli madaniyatini shakllantirishimiz lozim.Turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik uchun ,ogohlilik shiorimizga aylanishi darkor.Axolining kitobxonlik savodxonligini oshirish,kitob bilan do'st bo'lismga odatlantirish lozim .Albatta, texnologiyadan ,kompyuterdan holi bo'lomaymiz,bu zamon talabidir.Lekin, yoshlarni ma'naviy -axloqiy jihatdan tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.Barchamiz bugun chuqur anglab oldik-faqatgina zamonaviy asosda ta'lim -tarbiya olgan ,jahonning manaman degan mamlakatlardagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan,jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol topgan yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirishga qodir bo'ladi<sup>12</sup> SHuning uchun ,bugungi kunda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini yoshlarimizga o'rgatish va internet tizmidan samarali ishlashni yo'lga qo'yishimiz lozimdir.

---

<sup>10</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik>.

<sup>11</sup> Maqsudov U Q Qosimova G E Talabalarda media savodxonlikni oshirishning pedagogikasoslari 2022 yil

<sup>12</sup> Karimov I.A .Ona yurtimiz baxt -u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish -eng oliy saodatdir .-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2015.b.225

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- <sup>1</sup> Davronov Z.Ilmiy ijod metodologiyasi.-Toshkent :Iqtisod-moliya,2007.b-180.
- <sup>2</sup> Винер Н Кибернетика М 1968 -С 166
- <sup>3</sup> Чернов А А Дашков и К 2003 С 13
4. Mirziyoyev SH .milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild.T O'zbekiston,2017 b. 150
5. Karimov I ``Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch``2008yil b.54
- 6.Inson fitrati: ma'naviyatga tahdid yechim va tavsiyalar 2023 yil
7. Karimov I yuksak ma'naviyat yengilmas kuch Ma'naviyat 2008
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M .Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.
- 9 B.S,ABDULLAYEVA,Y.Z,RO'ZIYEV K.V,ISMOLOVA Media savodxonlik va axborot madaniyati darslik2024.
- 10.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik>.
- 11.Maqsudov U Q Qosimova G E Talabalarda media savodxonlikni oshirishning pedagogika asoslari 2022yil
12. Karimov I.A .Ona yurtimiz baxt -u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir .-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2015.b.225
-